

BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING KASBIY FAOLIYATINI INTERFAOL METODLAR ORQALI TAKOMILLASHTIRISH

Dehqonboyev Muhammad To'liqin o'g'li¹

¹ Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti, tayanch doktorant

¹ E-mail: muhammaddehqonboyev56@gmail.com

DOI: 10.61587/mmit.tiue.uz.v1i1.285

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy faoliyatini interfaol metodlar asosida takomillashtirish masalalari yoritiladi. Unda zamonaviy ta'lim jarayonida o'qituvchining kasbiy kompetentligi, metodik tayyorgarligi, ijodiy yondashuvi va o'quvchilar bilan samarali muloqot o'rnatish ko'nikmalarini rivojlantirishda interfaol metodlarning ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, boshlang'ich ta'limda "Aqliy hujum", "Klaster", "Keys-stadi", "Guruhda ishlash", "Insert" kabi metodlardan foydalanish o'quvchilarning faolligi, mustaqil fikrlashi va darsga qiziqishini oshirishga xizmat qilishi asoslab beriladi. Maqolada interfaol metodlar o'qituvchining pedagogik mahoratini oshirish, dars jarayonini samarali tashkil etish hamda ta'lim sifatini yaxshilashning muhim omili sifatida qaraladi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, boshlang'ich sinf o'qituvchisi, kasbiy faoliyat, kasbiy kompetentlik, interfaol metodlar, pedagogik mahorat, metodik tayyorgarlik, ta'lim sifati, o'quvchi faolligi.

IMPROVING THE PROFESSIONAL ACTIVITY OF PRIMARY SCHOOL TEACHERS THROUGH INTERACTIVE METHODS

Dehqonboyev Muhammad To'liqin o'g'li¹

¹ Foundation doctoral student, National Institute of Pedagogical Excellence named after Abdulla Avloni

¹ E-mail: muhammaddehqonboyev56@gmail.com; Tel.: +998 97 325 93 45

Abstract. This article discusses the improvement of the professional activity of primary school teachers through interactive teaching methods. It analyzes the importance of interactive methods in developing teachers' professional competence, methodological preparedness, creative approach, and effective communication skills with pupils in the modern educational process. The article also highlights that the use of methods such as "Brainstorming," "Cluster," "Case Study," "Group Work," and "Insert" in primary education helps increase pupils' activity, independent thinking, and interest in lessons. Interactive methods are considered an important factor in enhancing teachers' pedagogical skills, organizing the lesson process effectively, and improving the quality of education.

Keywords: primary education, primary school teacher, professional activity, professional competence, interactive methods, pedagogical skills, methodological preparedness, quality of education, pupil activity.

Kirish

Bugungi kunda boshlang'ich ta'lim tizimida o'qituvchining kasbiy faoliyatini takomillashtirish masalasi ta'lim sifatini oshirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Chunki boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'quvchining ilk bilim, ko'nikma, axloqiy qarash, muloqot madaniyati va mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantiruvchi asosiy pedagogik subyekt sanaladi. Ayniqsa, zamonaviy ta'lim jarayonida o'qituvchidan faqat bilim berish emas, balki o'quvchini faol fikrlashga, izlanishga, savol berishga, muammoni hal qilishga va o'z fikrini erkin ifodalashga yo'naltirish talab etiladi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy faoliyati darsni rejalashtirish, o'quvchilar bilan samarali muloqot o'rnatish, ta'lim metodlarini to'g'ri tanlash, baholash, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish, sinf muhitini boshqarish va o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish kabi tarkibiy qismlardan iborat. Shu jihatdan interfaol

metodlar o'qituvchi kasbiy faoliyatini zamonaviy talablar asosida takomillashtirishda muhim vosita vazifasini bajaradi.

Interfaol metodlarning afzalligi shundaki, ular dars jarayonida o'quvchini passiv tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida shakllantiradi. "Aqliy hujum", "Klaster", "Insert", "Keys-stadi", "Guruhda ishlash", "Juftlikda ishlash", "Baliq skeleti", "Venn diagrammasi" kabi metodlar o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, hamkorlikda ishlash va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa boshlang'ich sinf o'qituvchisining metodik mahorati, pedagogik yondashuvi va kasbiy kompetentligini oshirishni talab etadi.

O'zbek pedagogik tafakkurida ta'lim va tarbiya birligi masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Abdulla Avloniy tarbiyani inson kamolotining asosiy mezonini sifatida baholab, ta'lim-tarbiyaning jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini chuqur yoritgan [1]. M. Quronov milliy tarbiya, yoshlar ma'naviyati va ta'lim jarayonida qadriyatlar uyg'unligi masalalariga e'tibor qaratgan [2]. O. Musurmonova va R.A. Mavlonova kabi pedagog olimlarning asarlarida esa o'qituvchining kasbiy faoliyati, pedagogik mahorati, ta'lim metodlari va tarbiyaviy jarayonning nazariy asoslari keng bayon etilgan [3; 4]. Xorijiy tadqiqotlarda ham interfaol yondashuvlar ta'lim samaradorligini oshiruvchi muhim omil sifatida qoraladi. L.S. Vygotsky ta'lim jarayonida ijtimoiy hamkorlik, muloqot va o'qituvchi ko'magining bola rivojlanishidagi o'rnini asoslab bergan [5]. D. Johnson, R. Johnson va E. Holubec kooperativ ta'lim o'quvchilarning akademik natijalari, ijtimoiy munosabatlari va shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi [6]. J. Hattie esa o'qituvchi ta'siri, qayta aloqa va o'quv jarayonini ko'rinadigan qilish ta'lim samaradorligida muhim ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi [7]. Shu bois mazkur maqolaning asosiy maqsadi boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy faoliyatini interfaol metodlar orqali takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilishdan iborat.

Adabiyotlar sharhi

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy faoliyatini takomillashtirish masalasi pedagogika fanida keng o'rganilgan yo'nalishlardan biridir. Ushbu masala o'qituvchi shaxsi, kasbiy kompetentlik, pedagogik mahorat, metodik tayyorgarlik, kommunikativ madaniyat va ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bevosita bog'liqdir.

O'zbek pedagogik qarashlarida o'qituvchi faoliyati nafaqat bilim berish, balki shaxsni tarbiyalash, axloqiy kamolotga yetaklash va jamiyatga foydali insonni shakllantirish jarayoni sifatida talqin qilinadi. Abdulla Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida tarbiyaning inson hayotidagi o'rnini alohida ta'kidlab, yosh avlodni ilmiy, odobli va jamiyatga foydali inson qilib tarbiyalash zarurligini asoslaydi [1]. Bu qarash boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining kasbiy faoliyatida tarbiyaviy mas'uliyat muhim o'rin tutishini ko'rsatadi.

M. Quronovning milliy tarbiya haqidagi ilmiy qarashlarida yosh avlodni milliy qadriyatlar, vatanparvarlik, ma'naviy barkamollik va ijtimoiy mas'uliyat ruhida tarbiyalash masalalari yoritiladi [2]. Bu yondashuv boshlang'ich sinf o'qituvchisining dars jarayonida faqat fan mazmunini emas, balki tarbiyaviy g'oyalarni ham singdirishi zarurligini ko'rsatadi. O. Musurmonova va hammualliflar tomonidan tayyorlangan "Umumiy pedagogika" darsligida ta'lim jarayoni, tarbiya nazariyasi, pedagogik faoliyat, o'qituvchi shaxsi va pedagogik mahoratga oid masalalar tizimli yoritilgan [3]. Ushbu manbada pedagogik jarayon o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro ta'sir, maqsadli faoliyat va shaxs rivojlanishini ta'minlovchi jarayon sifatida talqin qilinadi. Bu esa interfaol metodlarning mohiyatiga mos keladi, chunki interfaol ta'limda ham asosiy e'tibor o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi faol hamkorlikka qaratiladi.

R.A. Mavlonova va hammualliflarning "Umumiy pedagogika" darsligida pedagogikaning nazariy asoslari, ta'lim metodlari, tarbiya jarayoni, pedagogik mahorat va o'qituvchi faoliyati haqida muhim ilmiy qarashlar berilgan [4]. Mazkur yondashuvlardan kelib

chiqib aytish mumkinki, boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy faoliyati doimiy rivojlanish, metodik yangilanish va o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos ta'lim texnologiyalaridan foydalanishni talab etadi.

Xorijiy pedagogik tadqiqotlarda interfaol metodlar ko'proq konstruktivistik va ijtimoiy-madaniy yondashuvlar bilan izohlanadi. L.S. Vygotsky ta'lim jarayonida bola rivojlanishi ijtimoiy muhit, muloqot va kattalar yoki tengdoshlar ko'magi orqali jadallashishini ta'kidlaydi [5]. Uning "yaqin rivojlanish zonasi" g'oyasi boshlang'ich ta'limda interfaol metodlarni qo'llash uchun nazariy asos bo'la oladi. Chunki guruhda ishlash, savol-javob, muammoli vaziyat, juftlikda bajariladigan topshiriqlar orqali o'quvchilar bir-biridan o'rganadi va o'z imkoniyatlarini kengaytiradi.

D. Johnson, R. Johnson va E. Holubec tomonidan ishlab chiqilgan kooperativ ta'lim konsepsiyasida o'quvchilarning kichik guruhlarda birgalikda ishlashi, o'zaro yordam, shaxsiy mas'uliyat va ijobiy bog'liqlik ta'lim samaradorligini oshiruvchi omillar sifatida ko'rsatiladi [6]. Bu yondashuv boshlang'ich sinf o'qituvchisidan darsni an'anaviy ma'ruza shaklida emas, balki hamkorlikka asoslangan faol o'quv jarayoni sifatida tashkil etishni talab qiladi.

J. Hattie o'zining keng ko'lamli tadqiqotlarida o'qituvchi ta'siri, aniq maqsad, samarali qayta aloqa, o'quvchilarning o'z o'rganishini anglash darajasi va ta'lim natijalarini ko'rinadigan qilish muhimligini asoslaydi [7]. Bu fikr interfaol metodlarning samaradorligini izohlashda ahamiyatlidir, chunki interfaol darslarda o'quvchi faqat javob bermaydi, balki o'z fikrini asoslaydi, xatolarini ko'radi, baholaydi va o'z faoliyatini tahlil qiladi.

OECD Learning Compass 2030 konsepsiyasida o'quvchilarda bilim, ko'nikma, qadriyat, munosabat, mas'uliyat va transformativ kompetensiyalarni rivojlantirish zarurligi ta'kidlanadi [8]. UNESCOning o'qituvchilar uchun AKT kompetensiyalari doirasida esa pedagoglarning raqamli texnologiyalar, innovatsion metodlar va faol o'quv muhitini tashkil etish bo'yicha tayyorgarligi muhim omil sifatida ko'rsatiladi [9]. Bu manbalar boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy faoliyatini takomillashtirishda interfaol metodlar bilan birga raqamli vositalardan ham foydalanish zarurligini ko'rsatadi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy faoliyatini interfaol metodlar orqali takomillashtirish quyidagi yo'nalishlarda muhim ahamiyatga ega: birinchidan, o'qituvchining metodik kompetentligini oshiradi; ikkinchidan, o'quvchilarning darsdagi faolligini kuchaytiradi; uchinchidan, hamkorlik, muloqot va mustaqil fikrlashni rivojlantiradi; to'rtinchidan, ta'lim va tarbiya birligini ta'minlaydi.

Tadqiqot usuli

Mazkur tadqiqotda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy faoliyatini interfaol metodlar orqali takomillashtirish masalasi nazariy va amaliy jihatdan o'rganildi. Tadqiqotda tahliliy, taqqoslash, umumlashtirish, kuzatish va pedagogik tajriba elementlariga asoslangan yondashuvlardan foydalanildi.

Birinchi bosqichda mavzuga oid o'zbek va xorijiy ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi. Xususan, Abdulla Avloniy, M. Quronov, O. Musurmonova, R.A. Mavlonova kabi o'zbek pedagog olimlarining ta'lim-tarbiya, pedagogik faoliyat va o'qituvchi mahoratiga oid qarashlari o'rganildi [1; 2; 3; 4]. Shuningdek, L.S. Vygotsky, D. Johnson, R. Johnson, E. Holubec, J. Hattie kabi xorijiy olimlarning interfaol ta'lim, hamkorlikda o'qitish, o'qituvchi ta'siri va qayta aloqa haqidagi ilmiy qarashlari tahlil qilindi [5; 6; 7].

Ikkinchi bosqichda interfaol metodlarning boshlang'ich sinf darslariga mosligi o'rganildi. Bunda "Aqliy hujum", "Klaster", "Keys-stadi", "Insert", "Guruhda ishlash", "Juftlikda ishlash", "Venn diagrammasi" kabi metodlarning o'quvchilar yosh xususiyatlariga, dars maqsadiga va o'qituvchi faoliyatiga ta'siri nazariy jihatdan tahlil qilindi.

Uchinchi bosqichda boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy faoliyatini baholash uchun quyidagi mezonlar belgilandi:

- I. Metodik tayyorgarlik darajasi;
- II. Darsda interfaol metodlardan foydalanish ko'nikmasi;
- III. O'quvchilarni faol ishtirok ettirish qobiliyati;
- IV. O'quvchilarning mustaqil fikrlashi va muloqotini rivojlantirish darajasi;
- V. Qayta aloqa va baholashni samarali tashkil etish;
- VI. Ta'lim va tarbiya uyg'unligini ta'minlash.

Tadqiqot metodologiyasida sifat tahliliga asosiy e'tibor qaratildi. Chunki o'qituvchining kasbiy faoliyati faqat sonli ko'rsatkichlar bilan emas, balki pedagogik jarayon sifati, o'quvchi faolligi, darsdagi muloqot va ta'limiy natijalar orqali ham baholanadi. Shu bilan birga, interfaol metodlar samaradorligini aniqlashda o'quvchilar ishtiroki, savol-javoblar soni, guruh ishlaridagi faollik, topshiriqlarni bajarish sifati va o'quvchilarning darsga qiziqishi kabi amaliy belgilar ham hisobga olindi.

Tadqiqotda qo'llanilgan metodlar quyidagilardan iborat:

- ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish;
- taqqoslash va umumlashtirish;
- pedagogik kuzatish;
- dars jarayonini tahlil qilish;
- o'qituvchi faoliyatini mezonlar asosida baholash;
- interfaol metodlarning didaktik imkoniyatlarini aniqlash.

Mazkur metodlar orqali boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy faoliyatida interfaol metodlardan foydalanishning ahamiyati, imkoniyatlari va samarali yo'llari aniqlashtirildi.

Natijalar va muhokama

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, interfaol metodlar boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy faoliyatini takomillashtirishda bir necha jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Birinchidan, interfaol metodlar o'qituvchining metodik kompetentligini oshiradi. An'anaviy darslarda o'qituvchi ko'proq axborot beruvchi sifatida ishtirok etsa, interfaol darslarda u tashkilotchi, yo'naltiruvchi, maslahat beruvchi va baholovchi vazifasini bajaradi. Bu esa o'qituvchidan darsni oldindan puxta rejalashtirish, topshiriqlarni o'quvchilar yoshiga moslashtirish, vaqtni to'g'ri taqsimlash va har bir o'quvchini faol jalb etishni talab qiladi.

Ikkinchidan, interfaol metodlar o'quvchilar faolligini oshiradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari yosh xususiyatlariga ko'ra ko'rgazmali, o'yinli, harakatli va muloqotga asoslangan faoliyatga ko'proq qiziqadi. Shu sababli "Aqliy hujum", "Rasm asosida hikoya tuzish", "Juftini top", "Klaster", "Savol-javob zanjiri" kabi metodlar ularning darsga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi. Bu jarayonda o'quvchi tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki bilimni izlovchi va yaratuvchi subyektg a aylanadi.

Uchinchidan, interfaol metodlar o'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantiradi. Guruhda ishlash, juftlikda suhbatlashish, fikr bildirish, savol berish va javobni asoslash jarayonida o'quvchilar nutq madaniyati, tinglash odobi, fikrni aniq ifodalash va boshqalarning fikrini hurmat qilishni o'rganadi. Bu holat Vygotskyning ta'limda ijtimoiy muloqot va hamkorlik rivojlanishning muhim omili ekani haqidagi qarashlari bilan mos keladi [5].

To'rtinchidan, interfaol metodlar o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatni demokratik va hamkorlikka asoslangan shaklga olib keladi. Dars jarayonida o'quvchi o'z fikrini

aytishi, xato qilishi, qayta urinishi va o'zini baholashi uchun imkoniyat yaratiladi. Bu esa o'quvchilarda o'ziga ishonch, mustaqil fikrlash va mas'uliyat hissini rivojlantiradi.

Beshinchidan, interfaol metodlar qayta aloqani kuchaytiradi. J. Hattie tadqiqotlarida qayta aloqa ta'lim samaradorligini oshiruvchi muhim omillardan biri sifatida baholanadi [7]. Boshlang'ich ta'limda qayta aloqa o'quvchiga xatosini ko'rsatish, uni rag'batlantirish, to'g'ri yo'nalish berish va o'z natijasini tushunishga yordam beradi. Interfaol metodlarda bu jarayon tabiiy ravishda amalga oshadi, chunki o'quvchilar topshiriq bajarish davomida o'qituvchi va tengdoshlaridan fikr oladi.

Oltinchidan, interfaol metodlar ta'lim va tarbiya uyg'unligini ta'minlaydi. Masalan, guruhda ishlash orqali o'quvchilarda hamkorlik, mas'uliyat, do'stlik, o'zaro hurmat va yordam berish kabi fazilatlar shakllanadi. Bu jihat Abdulla Avloniy va M. Quronovning tarbiya va ma'naviy kamolot haqidagi qarashlari bilan uyg'unlik kasb etadi [1; 2].

Muhokama jarayonida shuni alohida ta'kidlash lozimki, interfaol metodlardan samarali foydalanish o'qituvchining tayyorgarligiga bog'liq. Agar o'qituvchi metodni faqat shakliy jihatdan qo'llasa, kutilgan natija yuzaga kelmasligi mumkin. Masalan, guruhda ishlash metodida har bir o'quvchining vazifasi aniq belgilanmasa, ayrim o'quvchilar faol, boshqalari esa passiv bo'lib qoladi. Shu sababli interfaol metodlarni qo'llashda quyidagi talablarga e'tibor berish zarur:

- metod dars maqsadiga mos bo'lishi;
- topshiriqlar o'quvchilar yoshiga mos tuzilishi;
- vaqt aniq rejalashtirilishi;
- har bir o'quvchining ishtiroki ta'minlanishi;
- o'qituvchi nazorat qiluvchi emas, yo'naltiruvchi bo'lishi;
- baholash mezonlari oldindan tushuntirilishi;
- dars oxirida refleksiya tashkil etilishi.

Tahlillar asosida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy faoliyatini interfaol metodlar orqali takomillashtirish modeli quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo'lishi mumkin:

1. Maqsadli komponent — o'qituvchining kasbiy faoliyatini zamonaviy talablar asosida rivojlantirish;
2. Mazmuniy komponent — interfaol metodlar, pedagogik texnologiyalar, tarbiyaviy yondashuvlar va metodik bilimlar;
3. Jarayonli komponent — darsni rejalashtirish, guruh faoliyatini tashkil etish, savol-javob, muammoli vaziyat va refleksiya;
4. Natijaviy komponent — o'qituvchining metodik mahorati, o'quvchilar faolligi, kommunikativ ko'nikmalar va ta'lim sifati oshishi.

Demak, interfaol metodlar boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy faoliyatini takomillashtirishda nafaqat metodik vosita, balki o'qituvchi shaxsini kasbiy rivojlantiruvchi pedagogik omil sifatida ham muhim ahamiyatga ega.

Xulosa

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy faoliyatini interfaol metodlar orqali takomillashtirish zamonaviy ta'lim jarayonining dolzarb yo'nalishlaridan biridir. Chunki boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchining kelgusidagi bilim olish jarayoni, shaxsiy rivojlanishi, ijtimoiylashuvi va mustaqil fikrlash qobiliyati uchun poydevor yaratadi. Bu jarayonda o'qituvchining kasbiy kompetentligi, metodik mahorati va pedagogik yondashuvi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Tadqiqot natijalari interfaol metodlar o'qituvchining kasbiy faoliyatini bir necha yo'nalishda rivojlantirishini ko'rsatdi. Birinchidan, ular o'qituvchining metodik tayyorgarligini kuchaytiradi. Ikkinchidan, o'quvchilarni dars jarayonida faol ishtirok etishga undaydi. Uchinchidan, o'quvchilarda muloqot, hamkorlik, mustaqil fikrlash va mas'uliyat kabi muhim ko'nikmalarni rivojlantiradi. To'rtinchidan, ta'lim va tarbiya birligini ta'minlashga yordam beradi.

O'zbek pedagog olimlarining qarashlari interfaol metodlardan foydalanishda milliy tarbiya, ma'naviy qadriyatlar va o'qituvchi mas'uliyatini hisobga olish zarurligini ko'rsatadi. Xorijiy tadqiqotlar esa hamkorlikda o'qitish, o'quvchi faolligi, qayta aloqa va ijtimoiy muloqot ta'lim samaradorligini oshirishini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Shu asosda quyidagi takliflarni berish mumkin:

1. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun interfaol metodlardan foydalanish bo'yicha amaliy seminar va treninglar muntazam tashkil etilishi lozim.
2. Har bir darsda kamida bitta interfaol metoddan maqsadli va mazmunli foydalanish tavsiya etiladi.
3. Interfaol metodlar o'quvchilarning yosh xususiyatlari, bilim darajasi va dars mavzusiga mos tanlanishi kerak.
4. O'qituvchi dars jarayonida nazoratchi emas, balki yo'naltiruvchi va hamkor sifatida faoliyat yuritishi lozim.
5. Dars yakunida refleksiya va qayta aloqa tashkil etilishi ta'lim samaradorligini oshiradi.
6. Interfaol metodlar milliy qadriyatlar, tarbiyaviy g'oyalar va zamonaviy kompetensiyalar bilan uyg'unlashtirilishi zarur.

Umuman olganda, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy faoliyatini interfaol metodlar orqali takomillashtirish ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning bilimga qiziqishini kuchaytirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish va pedagogik jarayonni samarali tashkil etishning muhim sharti hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent: O'qituvchi, 1992.
2. Quronov M. Milliy tarbiya va yoshlar. Monografiya. Toshkent, 2006.
3. Musurmonova O. va boshqalar. Umumiy pedagogika. Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. 376 b.
4. Mavlonova R.A., Rahmonqulova N.H., Matnazarova K.O. va boshqalar. Umumiy pedagogika. Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. 528 b.
5. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge: Harvard University Press, 1978.
6. Johnson D.W., Johnson R.T., Holubec E.J. Cooperative Learning in the Classroom. Alexandria, VA: Association for Supervision and Curriculum Development, 1994.
7. Hattie J. Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement. London; New York: Routledge, 2009.
8. OECD. OECD Learning Compass 2030: Concept Note Series. Paris: OECD Publishing, 2019.
9. UNESCO. UNESCO ICT Competency Framework for Teachers. Version 3. Paris: UNESCO, 2018.